



МАКТАБГАЧА INKLYUZIV TA'LIM VA INTEGRATSION TA'LIM TUSHUNCHALARI

Kayumova Dilsora Nurali qizi

Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lism metodikasi" kafedrasi v.b.dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha inklyuziv ta'lism va integratsion ta'lism tushunchalari o'zaro qiyoslanib tahlil etilgan bo'lib, ushbu ta'lism bugungi kunda mamlakatimizda alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallanganligi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lism, inklyuziv va integratsion ta'lism, metod, bolalar, ta'lism muassasa.

Mamlakatimizda ta'lism tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-2021 yillarga Maktabgacha ta'lism tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlarida maktabgacha ta'lism tizimini moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lism tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, maktabgacha ta'lism tizimini qayta ko'rib chiqish va yanada takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan edi.

Inklyuziv ta'lism vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatlari ta'lism taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobjiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy mакtabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lism tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday mакtabda ta'lism olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

"Inklyuziv ta'lism — barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lism ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lism muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir".

2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lismi rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Alovida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lismini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi. Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko'rsatkichlar va tegishli davrga mo'ljallangan asosiy yo'naliishlardan kelib chiqqan holda 2022-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alohida "Yo'l xaritasi" asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilandi. Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshirish, jumladan: 2020 — 2022-yillar davomida: inklyuziv ta'lism tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtirish; inklyuziv ta'lism



tizimi uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta va malakasi oshirish; inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalarining moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, ular maxsus moslamalar (ko’tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo’llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’milanishi; inklyuziv ta’lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihamalar joriy etish; alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o‘rtasida ijobjiy ijtimoiy muhit shakllantirish; alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish; inklyuziv ta’lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta’lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilish¹

Inson ongining aksiologik maydonidagi o’zgarish muqarrar ravishda umumiylar tarzda sotsiumdagi qator o’zgarishlarni belgilaydi. Ayrim ijtimoiy institutlar maxsus faol o’zgarishlarni boshidan kechiradi va yangilangan mazmun va shaklga ega bo’ladilar. Xususan, bunday o’zgarishlar «inklyuziv tarbiya», «inklyuziv ta’lim», «inklyuziv ta’lim muhiti», «inklyuziv jamiyat» «inklyuziv maktabgacha ta’lim tashkiloti», va boshqalar kabi tushunchalarning yuzaga kelishida namoyon bo’ldi. Bunday tushunchalar hozirgi kunda ilmiy manbalar va kundalik hayotimizda tez-tez tilga olinmoqda va agarda bir necha o’n yilliklar oldin ular keskin ravishda inkor qilinishi va xush ko’rilmasligi yoki hech bo’lmaganda anglashmovchilik va shubha-gumonlarga sabab bo’lishi mumkin edi. Shunday qilib, «maxsus ta’lim olishga ehtiyojlari bor bo’lgan bolalar» va «sog’ligi jihatidan imkoniyati cheklangan shaxs» tushunchalariga ta’rif berib, ularni ajratgan F.N. Alipxanova va N.U. Yarichevlar aksariyat pedagoglar uchun odatiy bo’lgan «inklyuziv ta’lim» tushunchasini sog’ligi jihatidan imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta’lim mazmuni bilan kengaytirdilar². Bu esa o’z navbatida bizlar uchun inklyuziya asnosida iqtidorli bolalar, muhojir bolalar, yetim bolalar, shuningdek murakkab hayotiy vaziyat va boshqa holatlarga tushgan bolalarning muammosiga murojaat qilgan holda uning mazmunini to’ldirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuraliyevna, Q. D. (2021). Approaches to the development of inclusive competence in preparation of future teachers for professional activity. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 2314-2320.

¹ Umarova F. Maktabgacha ta’limda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish. Scientific progress volume 2 | issue 2 | 2021 issn: 2181-1601

² Abdulaeva P.Z., Magomedova M.A., Ibragimova E.S. Sotsiokulturnyy podxod formirovaniya sennostey na osnove otvetstvennoy i professio-nalnoy pozitsii budushhego spetsialista meditsinskogo vuza // Uspehi sovremenennogo estestvoznaniya. 2015. № 1-3. S. 503-505.

НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ



2. Nuraliyevna, K. D. (2021). INCLUSIVE EDUCATION IN KINDERGARTEN. Наука и образование сегодня, (4 (63)), 82-83.
3. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational Organizations-Pedagogical Need. Journal of Advanced Zoology, 44(S-2), 1777-1784.
4. Guzalkhan M. CREATIVE PERSON AND THE HARD WORK OF CREATIVITY //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 4. – №. 1. – С. 239- 240.
5. Xolmanova, Z. (2022). Omonimlar-tafakkur omili. Uzbekistan: Language and Culture, 1(1).

